

TAQQOSLASH MANTIQIY OPERATSIYASINING LINGVISTIK TUZILMALARDA VOQELANISHI

Rahimova Maftuna Odilovna,

Qo'qon davlat universiteti

m-r.83@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada lingvistik tuzilma va mantiqiy operatsiyalar o'rtasidagi munosabat taqqoslash operatsiyasi misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda taqqoslashning fonetik, leksik va grammatik sathlarda voqelanish mexanizmlari struktur-semantik hamda lingvomantiqiy yondashuv asosida o'rganildi. Natijalar taqqoslash operatsiyasi tilning barcha qatlamlarida turli lingvistik vositalar orqali modellashirilishini ko'rsatdi. Lingvistik tuzilma mantiqiy operatsiyalarning tayyor ifodasi emas, balki tafakkurda shakllangan mantiqiy strukturalarni kommunikativ shaklga ko'chiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'lishi asoslandi.

Kalit so'zlar: lingvistik tuzilma, mantiqiy operatsiya, taqqoslash, til va tafakkur, lingvomantiq, fonetik sath, leksik sath, grammatik sath.

Аннотация. В данной статье анализируется взаимосвязь между лингвистической структурой и логическими операциями на примере операции сравнения. В исследовании механизмы реализации сравнения на фонетическом, лексическом и грамматическом уровнях изучаются на основе структурно-семантического и лингвологического подходов. Результаты показывают, что операция сравнения моделируется посредством различных языковых средств на всех уровнях языковой системы. Обосновывается, что лингвистическая структура является не готовым выражением логических операций, а механизмом, переводящим логические структуры, сформированные в мышлении, в коммуникативную форму.

Ключевые слова: лингвистическая структура, логическая операция, сравнение, язык и мышление, лингвология, фонетический уровень, лексический уровень, грамматический уровень.

Abstract. This article examines the relationship between linguistic structure and logical operations through the example of comparison as a cognitive operation. The mechanisms of realization of comparison at phonetic, lexical, and grammatical levels were analyzed using structural-semantic and linguo-logical approaches. The findings demonstrate that comparison is modeled through various linguistic means across all levels of language organization. The study argues that linguistic structure is not merely a ready-made expression of logical operations but serves as a mechanism that transforms logically structured thought into communicative form.

Keywords: linguistic structure, logical operation, comparison, language and thought, linguo-logic, phonetic level, lexical level, grammatical level.

Kirish. Til va tafakkur munosabati nazariy tilshunoslik hamda mantiq fanlari kesishgan murakkab ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Lingvistik tuzilma til birliklarining ichki tashkil topish tizimini, ularning formal, sintaktik va semantik qatlamlarda o'zaro bog'lanish mexanizmini ifodalaydi. Har qanday til birligi (fonema, morfema, leksema, gap yoki matn) muayyan strukturaviy model asosida shakllanadi. Ushbu model til birliklarining qanday komponentlardan tarkib topishi, bu komponentlarning qanday munosabatda joylashishi va ularning birgalikda qanday mazmun hosil qilishini belgilaydi. Lingvistik tuzilma shu ma'noda tilning tashkiliy shakli bo'lib, unda predikativlik, grammatik munosabatlar va semantik bog'lanishlar yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, gap va matn darajasida lingvistik tuzilma mantiqiy mazmunni tashuvchi asosiy mexanizm vazifasini bajaradi.

Mantiqiy operatsiyalar esa inson tafakkurida amalga oshadigan bilish jarayonlarining funksional mexanizmlari hisoblanadi. Taqqoslash, analiz va sintez, abstraksiya va umumiyashtirish, konkretlashtirish, tasniflash va sistemaga solish aqliy operatsiyalarning asosiy turlaridir [4, C.189.]. Bu operatsiyalar ongda kechadi, biroq ular til orqali ifodalanmaguncha ijtimoiy va ilmiy muomalaga kirisha olmaydi. Shu jihatdan qaraganda, mantiqiy operatsiyalar tilga nisbatan birlamchi bo'lsa-da, ularning barqaror va tizimli shaklga ega bo'lishi bevosita lingvistik tuzilma orqali ta'minlanadi. Til tizimi inson tafakkurining mantiqiy operatsiyalari uchun tayanch ifoda maydoni bo'lib xizmat qiladi: tafakkurda amalga oshadigan tahlil, sintez, taqqoslash, abstraksiyalash, umumlashtirish, konkretlashtirish, tasniflash, sistemaga solish kabi operatsiyalar tilning fonetik shakllanishidan tortib matn va diskurs darajasigacha bo'lgan barcha sathlarida muayyan lingvistik tuzilmalar orqali modellashtiriladi. Lingvistik tuzilma mantiqiy operatsiyaning "tayyor ifodasi" emas, balki tafakkur jarayonida vujudga kelgan mantiqiy strukturani nutqiy shaklga ko'chiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Til va tafakkur munosabati hamda mantiqiy operatsiyalar masalasi Aristotel, V. fon Gumboldt, F. de Saussure va L. S. Vygotsky asarlarida keng yoritilgan. Ular tilning tafakkur bilan bog'liqligi va mantiqiy jarayonlarning lingvistik ifodalanishini asoslab bergan. O'zbek tilshunosligida O. Bozorov darajalanish hodisasini o'rganib, taqqoslashning leksik va grammatik ifodalanish mexanizmlarini tahlil qilgan. Umuman, adabiyotlar tahlili taqqoslash operatsiyasining lingvistik sathlarda kompleks o'rganilishi hali yetarli darajada tizimlashtirilmaganini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda struktur-semantik, tavsifiy va lingvomantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Struktur-semantik metod taqqoslash operatsiyasining fonetik, leksik va grammatik sathlardagi ifodalanish shakllarini aniqlashga xizmat qildi. Tavsifiy metod orqali o'zbek tilidagi lingvistik birliklarning qiyosiy imkoniyatlari izohlandi.

Lingvomantiqiy yondashuv esa til birliklari va tafakkurdagi mantiqiy operatsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga imkon berdi. Tadqiqot materiali sifatida o'zbek tilidagi fonetik oppozitsiyalar, leksik birliklar va grammatik qiyosiy konstruksiyalar tanlab olindi hamda ularning taqqoslash operatsiyasini ifodalashdagi o'rni tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar. Til va tafakkur o'rtasidagi munosabat masalasi falsafa, mantiq va tilshunoslik tarixida uzoq davr davomida muhim nazariy muammo sifatida tadqiq etib kelinadi. Ushbu munosabatni izohlashda turli ilmiy paradigmalarda shakllangan bo'lib, ularning aksariyati tilning tafakkur bilan aloqasini mantiqiy va struktur jihatdan tushuntirishga intilgan.

Antik falsafada til va mantiq munosabati avvalo hukm va tushuncha kategoriyalari orqali izohlangan. Ayniqsa, Aristotel tafakkur qonunlari va hukm strukturalarini tahlil qilish orqali mantiqiy munosabatlarning til vositasida ifodalanishini ko'rsatgan. Uning

sillogistik nazariyasi keyinchalik lingvistik strukturalarning predikativ tabiatini izohlashda metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. [1]

Til va tafakkur munosabatining psixologik-kognitiv talqini XIX–XX asrlarda yangi bosqichga ko‘tarildi. Vilgelm fon Gumboldt tilni tayyor kommunikativ vosita emas, balki tafakkurni shakllantiruvchi “ichki forma” sifatida talqin qilib, har bir til o‘ziga xos konseptual dunyoqarashni yuzaga keltirishini ta’kidladi. Bu qarash keyinchalik lingvistik relativizm nazariyasiga zamin yaratdi.[3]

XX asr tilshunosligida struktur yondashuv lingvistik tuzilmani mustaqil tizim sifatida o‘rganishga asos soldi. Ferdinand de Saussure tilni belgilar tizimi sifatida tavsiflab, undagi munosabatlar paradigmatic va sintagmatic aloqalar orqali shakllanishini ko‘rsatdi.[6] Uning qarashlari fonologik oppozitsiyalar, semantik differentsiallik va grammatik strukturalarning ichki tizimini tahlil qilish uchun nazariy poydevor yaratdi. Keyinchalik struktur tilshunoslik doirasida fonologik oppozitsiyalar nazariyasi rivojlantirilib, til birliklarining o‘zaro qiyosiy tabiatiga e’tibor kuchaydi.

Mantiqiy operatsiyalarning kognitiv asoslarini tadqiq qilishda psixologik maktab vakillarining ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Lev Vygotsky tafakkur va nutqning uzviy bog‘liqligini asoslab, fikrning til orqali shakllanishi va ijtimoiylashishini ko‘rsatgan. Uning konsepsiyasiga ko‘ra, tafakkur tilsiz mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, murakkab mantiqiy operatsiyalar barqaror kommunikativ shaklga aynan til vositasida ega bo‘ladi. Mazkur yondashuv lingvistik tuzilmaning mantiqiy operatsiyalarni modellashtirishdagi rolini tushunishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.[7]

Taqqoslashning mantiqiy mohiyati mantiq va psixologiya adabiyotlarida tafakkurning asosiy operatsiyalaridan biri sifatida izohlanadi. An’anaviy mantiqda taqqoslash narsalar va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik hamda farqlilikni aniqlovchi aqliy faoliyat deb qaraladi. Analiz, sintez, abstraksiyalash va umumlashtirish kabi operatsiyalar ham ko‘pincha taqqoslashga tayangan holda amalga oshadi. Shu jihatdan taqqoslash tafakkurning universal bilish mexanizmlaridan biri sifatida baholanadi.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar til va tafakkur munosabatini, lingvistik strukturalarning sistem tabiatini hamda mantiqiy operatsiyalarning kognitiv asoslarini keng yoritgan bo‘lsa-da, taqqoslash operatsiyasining tilning barcha sathlarida voqelanishini kompleks lingvomantiqiy model sifatida tadqiq qilish masalasi hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotda struktur-semantik, tavsifiy va lingvomantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Struktur-semantik metod yordamida taqqoslash operatsiyasining til sathlaridagi formal va semantik ko‘rinishlari o‘rganildi. Tavsifiy metod orqali o‘zbek tilidagi fonetik, leksik va grammatik birliklarning qiyosiy imkoniyatlari izohlandi. Lingvomantiqiy tahlil esa til birliklari va tafakkur operatsiyalari o‘rtasidagi funksional munosabatni aniqlashga xizmat qildi.

Tahlil materiali sifatida o‘zbek tilidagi fonologik oppozitsiyalar, leksik paradigmatic munosabatlar hamda qiyosiy grammatik konstruktsiyalar tanlandi. Taqqoslash operatsiyasining namoyon bo‘lishi fonetik, leksik va sintaktik sathlarda misollar asosida tahlil qilindi.

Lingvistik tuzilma va mantiqiy operatsiyalar o‘rtasidagi munosabat ayniqsa taqqoslash operatsiyasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Taqqoslash shunday bir aqliy operatsiyadirki, bu operatsiya ayrim narsalar o‘rtasida o‘xshashlikni yoki tafovut, tenglik yoki tengsizlik, bir xillik yoki qarama-qarshilik borligini aniqlashda ifodalanadi [5.76] Demak, taqqoslash tafakkurning eng fundamental mantiqiy operatsiyalaridan biri bo‘lib, bilish jarayonida obyekt, hodisa va belgilar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlilik munosabatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Taqqoslash uchun uch tarkibiy qism talab qilinadi. Bular o‘zaro taqqoslanuvchi ikki predmet (xususiyat) hamda taqqoslash uchun asos (tayanch) vazifasini bajaruvchi mavhum belgidir.[2.13] Inson tafakkurida taqqoslash bo‘lmasa, umumlashtirish, abstraksiyalash, konkretlashtirish, tasniflash kabi boshqa mantiqiy operatsiyalar ham shakllanmaydi, chunki har qanday bilish jarayoni avvalo obyektlarni o‘zaro solishtirish orqali ularning umumiy va farqli belgilarini ajratib olishdan boshlanadi. Til esa ushbu mantiqiy operatsiyaning tashqi ifoda maydoni sifatida xizmat qilib, taqqoslashning fonetik, leksik va grammatik sathlarda turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishiga imkon yaratadi.

Fonetik sathda taqqoslash bevosita tovushlar tizimi doirasida oppozitsiyalar orqali yuzaga chiqadi. Masalan, o‘zbek tilidagi jarangli va jarangsiz undoshlar oppozitsiyasi (b – p, d – t, g – k, z – s) til tizimining fonologik tuzilishida farqlash (differensial belgi) mexanizmi sifatida ishlaydi. Bu farqlash mantiqan taqqoslash operatsiyasiga tayangan holda amalga oshadi: /b/ va /p/ tovushlari artikulyatsiya jihatidan o‘xshash, lekin jaranglilik belgisi bilan farqlanadi. Nutq egasi bu farqni idrok etish uchun ongida ikki tovushni o‘zaro solishtiradi. Masalan, “bola – pola”, “bor – por” juftliklari real til amaliyotida mavjud bo‘lmasa ham, fonologik tizimda bunday oppozitsiyalarni idrok qilish qobiliyati taqqoslashning kognitiv mexanizmi orqali shakllanadi. Shuningdek, urg‘u va intonatsiya orqali ham taqqoslash mazmuni kuchaytiriladi: “u keladi” va “u keladi?” shakllarini intonatsiya orqali solishtirish natijasida tasdiq va savol munosabati ajratiladi. Bu holatda fonetik vosita mantiqiy taqqoslashni pragmatik darajada ifodalovchi mexanizmga aylanadi.

Leksik sathda taqqoslash eng aniq va boy ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Bu yerda nafaqat sifatlar, balki otlar, fe‘llar, ravishlar, olmoshlar ham taqqoslash munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Sifatlar doirasida “katta – kichik”, “uzun – kalta”, “chiroyli – xunuk” kabi antonimik juftliklar taqqoslash asosida ma’no kasb etadi; “katta – kattaroq – eng katta” darajalari esa bevosita qiyoslashni grammatiklashtiradi. Biroq taqqoslash faqat sifatlar bilan cheklanmaydi: otlar orqali ham obyektlarning ijtimoiy, funksional yoki ontologik farqlari qiyoslanadi. Masalan, “olim – talaba” birliklari bilim darajasi va

ijtimoiy rol nuqtayi nazaridan qiyoslanadi; “tog‘ – tepa” birliklari fazoviy masshtab jihatidan solishtiriladi. Fe’llar doirasida “yugurmoq – yurmoq – sudralmoq” kabi birliklar harakat tezligi va intensivligi jihatidan taqqoslash asosida idrok etiladi. Ravishlar esa bevosita qiyosiy munosabatni bildiradi: “sekin – tez – tezroq”, “uzoq – yaqin – yaqinroq”. Olmoshlar ham taqqoslashga xizmat qiluvchi diskursiv mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi: “bunaqa emas, unday” kabi qarama-qarshi ko‘rsatishlar obyektlar o‘rtasidagi farqni ta’kidlaydi. Leksik birliklarning sinonimiya va antonimiya munosabatlari ham mohiyatan taqqoslash operatsiyasiga tayangan semantik tizimni tashkil etadi, chunki sinonimlar o‘xshashlik, antonimlar esa qarama-qarshilik orqali ma’no tarmog‘ini hosil qiladi.

Grammatik sathda taqqoslash operatsiyasi morfologik va sintaktik mexanizmlar orqali tizimli ifodalanadi. Morfologik darajada sifat darajalari taqqoslashning grammatiklashgan ko‘rinishidir: katta, kattaroq, eng katta kabi shakllar predmet belgilarining o‘zaro qiyosini ifodalaydi. Bu yerda lingvistik tuzilma tafakkurdagi qiyoslash operatsiyasini uch bosqichli model — oddiy daraja, qiyosiy daraja va orttirma daraja orqali aniq va tizimli tarzda kodlaydi. Sifat darajalari orqali ifodalangan taqqoslash mantiqiy operatsiyasi til tizimida faqat belgi intensivligini emas, balki baholash va xulosa chiqarish jarayonini ham shakllantiradi. Masalan, *Bu yechim avvalgisidan samaraliroq* gapida qiyosiy daraja nafaqat ikki obyektни taqqoslaydi, balki muayyan mantiqiy xulosani ham yuzaga chiqaradi. Eng muhim masala birikmasida esa orttirma daraja obyektlar orasida ustuvorlikni belgilab, tafakkurdagi ierarxik taqqoslash operatsiyasini ifodalaydi. Demak, sifat darajalari mantiqiy qiyoslashning lingvistik modeli sifatida xizmat qiladi.

Sintaktik darajada esa taqqoslash maxsus konstruktsiyalar orqali amalga oshadi: “A B dan balandroq”, “X Ydek chiroyli”, “u sendan ko‘ra tezroq ishlaydi”. Bu tuzilmalar mantiqiy qiyoslashni ochiq strukturaviy shaklda namoyon qiladi. Qiyoslovchi bog‘lovchilar va ko‘makchilar (“kabi”, “singari”, “qaraganda”, “ko‘ra”) grammatik vosita sifatida taqqoslashning shakliy belgilaridir. Masalan, “Bu masala oldingisiga qaraganda murakkabroq” gapida mantiqiy operatsiya (ikki vaziyatni qiyoslash) grammatik konstruktsiya orqali yuzaga chiqadi. Qo‘shma gaplar doirasida ham taqqoslash semantik munosabat sifatida namoyon bo‘ladi: “U ko‘p ishlaydi, ammo natijasi kam” kabi qarama-qarshi bog‘lovchi orqali ikki holat qiyoslanadi.

Olingan natijalar lingvistik tuzilma va mantiqiy operatsiyalar o‘rtasidagi munosabat biryoqlama emasligini ko‘rsatadi. Taqqoslash operatsiyasi tafakkurda yuzaga keladigan aqliy faoliyat bo‘lsa-da, uning barqaror va kommunikativ shaklga ega bo‘lishi lingvistik strukturalar orqali amalga oshadi. Demak, til mantiqiy operatsiyalarning passiv ifodachisi emas, balki ularni strukturaviy jihatdan tashkil etuvchi faol mexanizm hisoblanadi.

Fonetik oppozitsiyalar, leksik paradigmatic munosabatlar va grammatik konstruktsiyalarni qamrab olgan tahlillar taqqoslashning universal lingvomantiqiy xarakterga egaligini tasdiqlaydi. Bu holat til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatni faqat

semantik darajada emas, balki strukturaviy va kognitiv nuqtayi nazardan ham o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari taqqoslash mantiqiy operatsiyasi tilning fonetik, leksik va grammatik sathlarida turli lingvistik mexanizmlar orqali voqelanishini ko'rsatdi. Lingvistik tuzilma mantiqiy operatsiyalarning oddiy tashqi ifodasi emas, balki tafakkurda shakllangan qiyoslash modelini kommunikativ shaklga keltiruvchi strukturaviy tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aristotle. (2001). *The basic works of Aristotle* (R. McKeon, Ed.). Modern Library. (Original work published ca. 350 B.C.E.).
2. Bozorov, O. (1995). *O'zbek tilida darajalanish*. Fan.
3. Humboldt, W. von. (1988). *On language: The diversity of human language-structure and its influence on the mental development of mankind* (M. Losonsky, Trans.). Cambridge University Press. (Original work published 1836).
4. Ivanov, I. P., & Zufarova, M. E. (2008). *Umumiy psixologiya*. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
5. Mavlyanov, A. A. (2006). *Mantiq*. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi.
6. Saussure, F. de. (2011). *Course in general linguistics* (W. Baskin, Trans.). Columbia University Press. (Original work published 1916).
7. Vygotsky, L. S. (1986). *Thought and language* (A. Kozulin, Ed. & Trans.). MIT Press. (Original work published 1934).

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934